

“Kelajak soati” 2-mavzu

“Kelajak soati” darsining 1-4 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

2-mavzu: “Bilim nima uchun kerak?”

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya: “Bilim nima uchun kerak?” mavzusi o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqish, intilish va mas‘uliyat hissini uyg‘otishga qaratilgan. Dars davomida bolalar “bilim” tushunchasini oddiy va hayotiy misollar orqali anglaydi, maktab, kitob va o‘qituvchining hayotdagi o‘rni haqida fikr yuritadi. Mashg‘ulotlarda ertak, maqol, video va interfaol topshiriqlar orqali bilimning kundalik hayotdagi ahamiyati tushuntiriladi. Bilimli insonning odobi, axloqi va jamiyatdagi o‘rni haqida tasavvur shakllantiriladi. Dars bolalarni izlanishga, o‘rganishga va kelajak kasbini ongli tanlashga undaydi. Yangi O‘zbekistonda bo‘layotgan o‘zgarishlar, Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ta‘lim sohasidagi islohotlarni bolalarga sodda va tushunarli tarzda anglatiladi.

O‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqish va mas‘uliyatni shakllantirish orqali ularning hayotga ongli yondashuvini, atrof-muhitni tushunish, muammolarni hal etish hamda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.

🎯 Aniq maqsadlar:

1. “Bilim” tushunchasini o‘z so‘zlari bilan tushuntirish.
2. Bilimning hayotdagi ahamiyatini oddiy va hayotiy misollar orqali izohlash.
3. Kitob, maktab va o‘qituvchining o‘rnini anglash.
4. Bilimli inson obrazini tasavvur qilish va kelajak kasbini tanlash.
5. Bilimni qayerdan va qanday olish mumkinligini tushunish.

🧠 **Asosiy g'oyalar:** Bilim – insonning eng katta boyligi. U faqat maktabda emas, balki kundalik hayotda ham o'rganiladi. Kitob – bilim kaliti, maktab – kelajak eshigi, o'qituvchi – yo'l ko'rsatuvchi. Bilimli inson odobli, axloqli va yurtiga foydali bo'ladi.

☑ **Darsdan keyin kutiladigan natijalar:**

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

- “Bilim” tushunchasini o'z so'zlari bilan izohlaydi.
- Bilimning hayotdagi ahamiyatini oddiy va hayotiy misollar orqali tushuntira oladi.
- “Aqlli, bilimli inson” obrazini tasavvur qilish va kelajakda kim bo'lishni ayta oladi.
- Maktab, kitob va o'qituvchining ahamiyatini anglaydi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Bilim olishga bo'lgan qiziqish va intilishni oshiradi.
- Kitob, maktab va o'qituvchiga nisbatan hurmat va mehr-muhabbatni kuchaytiradi.
- Bilimli bo'lish orqali jamiyatga foyda keltirish istagini uyg'otadi.

3. Amaliy ko'nikmalarda:

- “Bilim nima uchun kerak?” savoliga to'liq va aniq javob bera oladi.
- Bilim olish uchun kundalik hayotda kitob o'qish, savol-javoblarda faol ishtirok etish va o'rganishga odatlanadi.
- O'z bilimini hayotdagi real vazifalarda qo'llaydi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Bilimning jamiyat rivojidagi o'rnini anglaydi.
- O'zaro yordam, hamkorlik va ijobiy muloqot muhitini shakllantiradi.
- O'quvchida fuqarolik burchi va Vatanga xizmat qilish hissini mustahkamlaydi.

 **Metapredmet:** bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, "Bilim nima uchun kerak?" darsida: Dars davomida o'quvchilarning turli fanlardan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

- Bolalarga bilimni turli kasb egalari bilan bog'laydi (texnologiya fan)
- Bola ilm haqida ertak tinglaydi va maqollar yod oladi (adabiyot),
- Video va multfilmlarni ko'radi va undan xulosa chiqaradi (san'at va media savodxonligi).
- bilimning hayotiy misollarini tahlil qiladi (muloqot), — bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir.**

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi milliy tarbiya instituti xodimlari. www.milliytarbiya.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, zamona qahramoni yoki mashhur kishilar intervyulari, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to'plami:**

- ssenariy;

- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

📌 Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismi maqsadi – o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma‘nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga tasviriyl materialni tahlil qilish, videolarni ko‘rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalarni umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.

1. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar! Bugun juda ham muhim, juda qiziqarli bir mavzu, hayotimiz uchun eng kerakli narsalardan biri – **bilim** haqida suhbatlashamiz. Bilim – insonning eng katta boyligi. Shunday ekan, bugungi darsimiz juda ham qiziqarli bo‘ladi.

Undan avval sizlarga savollarim bor. Qani javob beringchi!

Siz dori-darmonni nima uchun ichasiz?

O‘quvchilar: (tahminiyl javoblar: kasal bo‘lganimizda, issig‘imiz chiqqanida, tomog‘imiz og‘riganida...) *barakalla, kasal bo‘lganimiz uchun ichamiz*

O'qituvchi: Qishning sovuq kunlarida nima uchun issiq kiyinasiz?

O'quvchilar: (taxmiy javoblar: sovuq qotmaslik uchun, kasal bo'lmaslik uchun...) *juda to'g'ri sovuq qotmaslik uchun*

O'qituvchi: Siz nima uchun yuvinib, cho'milib yurasiz?

O'quvchilar: (taxmiy javoblar: chiroyli bo'lish uchun, toza yurish uchun, salomatlik uchun...) *barakalla, toza, ozoda, sog'lom yurish uchun*

O'qituvchi: Ko'rdingizmi, aziz bolajonlar, mana shu yaxshi odatlarni o'rganishimiz ham – bilimdir. Bilimni faqat maktabda emas, balki kundalik hayotimizda ham olishimiz mumkin ekan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ham sizlar yaxshi bilim olishlaringiz uchun ta'limga katta e'tibor qaratmoqdalar. Yangi maktablar qurilyapdi, qiziqarli kitoblar chop etilyapdi va o'qituvchilarning mehnati qadrlanyapdi.

Bu esa shundan dalolat beradiki, kelajagimiz yetuk bilimli o'quvchilar qo'lida!

Sizning tengdoshingiz, yurtdoshingiz Shukrona Komiljonova ham ana shunday bilimli yoshlarimizning yaqqol namunasi, desak adashmagan bo'lamiz. Keling, barchamiz birgalikda Shukronaning hikoyasini o'z tilidan eshitamiz.

5 yoshli Shukrona Komiljonovanning ajoyib iqtidori haqidagi 2 daqiqalik videolavha namoyish etiladi. Videolavhadan olingan taassurotlar haqida bolalardan so'raladi. 3 daqiqa.

O'qituvchi: Endi ayting-chi, bolajonlar, Shukrona bunday natijalarga nima orqali erishdi?

O'quvchilar: (ko'p o'qish orqali, bilim orqali, xotirani mustahkamlash orqali...)

O'qituvchi: Juda to'g'ri, bolajonlar! Shukrona bunday natijalarga kuchli bilimi, tirishqoqligi, xotira kuchi, tinimsiz harakatlari orqali erishdi.

Aziz bolajonlar! Sizda ham ana shunday imkoniyatlar bor. Sizlar ham bilimli va kuchli ekanligingizni dunyoga ko'rsata olasizmi?

O'quvchilar: Haaaa.

O'qituvchi: Hammamiz birgalikda baland ovozda aytamiz. Sizlar ham bilimli va kuchli ekanligingizni dunyoga ko'rsata olasizmi?

O'quvchilar: HAAAA

O'qituvchi: Barakalla bolajonlar! Agar biz bilim olmasak, o'qish va yozishni bilmas edik. To'g'rimi?

O'quvchilar: Haaaa.

2- ASOSIY QISM. "Bilim" tushunchasi

O'qituvchi: Agar inson bilim bilan avtomobilni ixtiro qilmasa, poyezd yoki samolyot yasamasa, biz boradigan manzilga qanday yetar edik. Demak, biz hayotda hamma narsani bilishimiz uchun, albatta, ko'proq o'qishimiz va yangi-yangi bilimlarni olishimiz kerak ekan.

Prezidentimiz shunday deganlar: "Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun, eng avvalo, yangi avlod — bilimli, vatanparvar, zamonaviy yoshlar kerak!" Demak, siz yaxshi o'qisangiz, ota-onangiz, aka-uka, opa-singillarni yaxshi ko'rsangiz, o'z tug'ilib o'sgan yurtigingizni sevsangiz, siz, albatta, aqlli va ilimli inson bo'lasiz.

Aziz bolajonlar! Bugungi darsimizda "Bilim nima degani?", "Bilim qayerdan olinadi?", "Bilim nima uchun kerak?" degan savollarga javob topishga harakat qilamiz.

O'qituvchi xulosa qiladi: Aziz o'quvchilar! Bilim – bu boylik, kelajak, nurli hayot! Xo'sh bolajonlar, bilim hayotimiz uchun kerakliligi haqida bilib oldingizmi?

O'quvchilar: Haaaa. Juda yaxshi.

Bilimning hayotda zarurligi

O'qituvchi: Aziz bolajonlar! Sizlar bugun yaxshi tushunib olasizlarki, bilim – bu faqat maktabda o'qish emas, balki hayotda o'z yo'limizni topish uchun eng kerakli qo'llanma ekan. Har bir bola yaxshi o'qib, o'zining orzu qilgan kasbiga

ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bugundan boshlab doimo izlaning, o'rganing, kitob o'qing!

Endi tasavvur qiling: Agar bilim bo'lmasa, inson nimani bilmaydi?

Agar bilim bo'lmasa, tikuvchi chiroyli liboslarni yarata olmas edi.

Agar bilim bo'lmasa, quruvchi devorni to'g'ri qura olmaydi.

Agar bilim bo'lmasa, yozuvchi kitob yoza olmaydi.

Agar bilim bo'lmasa, oshpaz taomni mazali qilolmaydi.

Buni sizlar ham hayotdan ko'rib, kuzatib turibsizlar. Demak, bilim bu – hayotning kaliti.

Eslang, maktabda biz har kuni nima olamiz?

(1-2 sinflarga o'qituvchi izoh beradi, 3-4 sinflar o'quvchilar javob berishadi: bilim, ilm, ta'lim va. h.k)

Ha – bilim!

Maktab – bilim o'chog'i. Kitob – bilim manbai. O'qituvchi – bilimlarni yetkazuvchidir.

Agar har bir bola yaxshi o'qisa, u katta bo'lgach, o'z yo'lini adashmay topadi. Bilim bilan u yaxshi ish topadi, o'zini, ota-onasini, oilasini ta'minlaydi, Vatanini, xalqini rivojlantiradi.

(O'qituvchi hayotiy misollar orqali tushuntirishi kerak)

Keling, ba'zi hayotiy misollarga e'tibor qilaylik:

Agar uyimizda dazmol yoki televizor buzilib qolsa, uni kim tuzatadi? – Bilimli usta.

Agar tomog'imiz yoki tishimiz og'rib qolsa bizni kim davolaydi?

– Bilimli shifokor.

Agar yangi uy qurmoqchi bo'lsak uni kim quradi?

– Bilimli quruvchi.

Demak, har bir ishda bilim kerak ekan. Biz esa yaxshi o'qishimiz, yaxshi kasblarni egallashimiz kerak ekan.

Endi siz ham ayta olasizmi:

- Bilim nima ekan?
- Bilimli inson qanday bo'ladi?
- Sizga bilim nima uchun kerak?

(o'quvchilar o'zlarining tilida oddiy va turli ta'riflar berib, o'qituvchi ko'magida savolni izohlashga harakat qiladilar. O'quvchilar hayotida uchragan voqea va hodisalar bilan bog'lab misollar keltiradi)

Esda tuting: Bilim – bu ko'zgu, u orqali dunyoga to'g'ri va chiroyli qarash mumkin. Bilim – kelajakning kaliti, yurtga xizmat qilish vositasi.

Demak, aziz bolajonlar, har kuni maktabga kelish, o'qish, tinglash, izlanish – bularning barchasi bizga kelajakda bilimli inson bo'lishimiz uchun kerak.

“Agar bilim bo'lmasa, o'qituvchi bolalarga ta'lim bera olmaydi. Agar bilim bo'lmasa, odam o'z yo'lini topa olmaydi. Agar bilim bo'lsa – hayot yorug', orzular esa amalga oshadi!”

“Aqli, bilimli inson” obrazi

“Mening dadam” hayotiy hikoyasi

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bilamizki, bugun butun dunyoda bilim olish, o'rganish yo'llari juda rivojlanib bormoqda. Avvallari o'quvchilar kutubxonaga borib bilim olishgan bo'lsa, bugun qo'llaringizdagi telefon orqali ham yangi ilmlar eshigini ochi olasiz. Misol uchun, oramizda sun'iy intellektni eshitmagan, bilmagan o'quvchi bo'lmasa kerak. Hozir ana shu sun'iy intellekt orqali yaratilgan videolavhada tengdoshingiz Behruzbekning oilasi bilan tanishamiz.

Sun'iy intellekt orqali yaratilgan 1 daqiqalik “Mening dadam” nomli video qo'yib berildi. Videolavhadan olingan taassurotlar haqida bolalardan so'raladi. 3 daqiqa.

O'qituvchi: Xo'sh, bolajonlar, Behruzbekning dadasi bunday yutuqlarga qanday erishgan ekan?

O'quvchilar: (maktabda yaxshi o'qish orqali, bilim orqali, tirishqoqlik orqali...)

O'qituvchi: To'ppa-to'g'ri! Demak, a'lo baholarga o'qib harakat qilsangiz, kelajakda sizni nimalar kutyapti?

O'quvchilar: (sevimli kasbda ishlash, chiroyli va zamonaviy uylarda yashash, chet elga sayohatlar)

O'qituvchi: Barakalla!

Ustoz xulosasi: Xo'sh, aziz bolajonlar, bilim insonga qanday foyda keltirishini bildingizmi? (*Ushbu lavha orqali bolalar hayotda bilimsizlikning oqibatini anglaydilar*).

O'quvchilar: haaaa

O'qituvchi: Barakalla!

Maktab, kitob, kutubxona va o'qituvchining ahamiyati

(*Bilim nima uchun kerak mavzusi yuzasidan quyidagi savollar atrofida jonli muloqot tashkil etiladi. 15-daqiqa*)

O'qituvchi: Bolajonlar! Hozir biz sizlar bilan juda muhim narsalar, mehribon insonlar va hayotimizning ajralmas qismlari haqida suhbatlashamiz. Ular nima deb o'ylaysizlar?

O'quvchilar: Maktab, kitob, kutubxona va o'qituvchi!

O'qituvchi: Ha, to'g'ri! Hozir suhbatimiz shu haqida: Maktab, kitob, kutubxona va o'qituvchining hayotimizdagi o'rni.

(Savol-javob asosida tushuntirish)

1-savol: "Siz maktabga nima uchun kelasiz?"

Bolalarning ehtimoliy javobi: "O'qish uchun", "O'ynash uchun", "Yangi narsa o'rganish uchun".

O'qituvchi xulosasi:

“Ha, maktab – bu bilim o‘chog‘i. Bu yerda biz har kuni bilim olamiz, yangi narsa o‘rganamiz. Qo‘shimcha qilay: maktab – kelajakning kaliti!”

2-savol: “Kitob nima? U nima uchun kerak?”

Bolalar javobi: “Unda hikoyalar bo‘ladi”, “Unda bilim bor”. va.h.k.

O‘qituvchi: “Kitob – bu bilimning kaliti. Har bir fan uchun kitob bor: matematika, ona tili, tabiatshunoslik, musiqa... Kitob – dono do‘st, u senga har doim yordam beradi”. “Kitobsiz bilim bo‘lmaydi. Qarang, hatto internetda ham kitob o‘qiymiz!”

3-savol: Shuningdek, ko‘p kitoblar saqlanadigan joy nima deyiladi? To‘g‘ri uning nomi – kutubxona deyiladi, u yerda siz bilimning har qanday turiga oid kitoblarni topishingiz mumkin. Ona tili, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, savodxonlik va turli-tuman fanlar bo‘yicha kitoblar hammasi kutubxonada mavjud. Bolajonlar, birozdan keyin biz bolalar kutubxonasi haqida videolavha tomosha qilamiz.

4-savol: “O‘qituvchi qanday inson? U nima qiladi?”

Bolalar javobi: “Dars o‘tadi”, “Bilim beradi”, “Yordam beradi”.

O‘qituvchi: “O‘qituvchi – birinchi do‘stingiz, birinchi rahbaringiz va doimiy tayanchingiz. U sizga yozish, o‘qish, hisoblashni o‘rgatadi. Lekin eng muhimi: o‘qituvchi sizni bilimli qilib tarbiyalaydi”.

O‘qituvchining umumlashtiruvchi so‘zi:

“Aziz bolalar! Bilim, maktab, kitob, o‘qituvchi – bular bir-birini to‘ldiruvchi qadriyatlar. Ular bo‘lmasa, inson o‘z yo‘lidan adashadi. Shunday ekan, har kuni maktabga keling, kitob o‘qing va o‘qituvchingizni tinglang!”

O‘qituvchi: “Maktab – kelajak eshigi, kitob – bilim kaliti, o‘qituvchi – yo‘lboshchidir!” Shuni aslo unutmanglar, aziz bolajonlarim!

O‘qituvchi: Keling, bilimning bosh manbayi bo‘lgan kitoblar maskani – kutubxona haqidagi ajoyib videorolik bilan bugungi darsimizni yakunlaymiz. Ushbu videolavhada tengdoshingiz Respublika bolalar kutubxonasi bilan bizni yaqindan tanishtiradi.

O‘qituvchilarga Respublika bolalar kutubxonasi haqidagi 2 daqiqalik videorolik qo‘yib beriladi.

O'qituvchi: Bu kutubxonaga albatta boring, siz yana boshqa kutubxonalarni ham bilasizmi? Chunki kutubxona bilimlar joyi. Bilim – bu dunyoni tushinish va kashf etishimiz uchun asosiy kalitdir. Har kuni atrofimizdagi narsalarni o'rganib, hayotimizni yanada boyitish va yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Amaliy mashq: “Bu qaysi maqol?” o'yini

Xalq og'zaki ijodida “Bilimga” e'tibor

(Topshiriq: O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Eng ko'p maqolni topgan guruh g'olib hisoblanadi).

O'qituvchi: Endi bolajonlar, ekrandagi rasmlarga diqqat bilan qaraymiz, ushbu rasmlarda bilim va unga bog'liq bo'lgan mavzulardagi maqollarning tasviri aks ettirilgan.

O'qituvchi: Ana, bolalar, xotiramizda bilim haqida bir qancha maqollar joy olgan ekan, hammamiz turli xil javoblar berdik. Keling, endi to'g'ri javoblarni tekshirib olamiz.

O'yin so'ngida g'olib bo'lgan guruh rag'batlantiriladi.

3. YAKUNIY QISM

O'qituvchi: “Aziz bolajonlar! Bilim – bu qudrat, kelajak, baxt va ozodlikdir. Bilimsizlik esa hayotda yo'lni yo'qotishdir. Demak, har kuni izlanish, o'rganish, tinglash va o'qish – bu bizning baxtli hayotimiz garovidir!” Bilimli insonning odobi ham, axloqi ham chiroyli bo'ladi.

Bolalar, axloqning oltin qoidasi bor. Shuni bilasizmi?

Bolalar: yo'o'o'o'o'o'q:

O'qituvchi: Bilishni xohlaysizmi? (Bolalar: Haaaaaa). Unda diqqat qiling: oltin qoidani yod olamiz:

“Boshqalar senga qanday muomala qilishini istasang, sen ularga shunday muomala qil”.

Bu nima degani? Seni aldashlarini istamasang – sen ham aldama.

Senga boshqalar yordam berishsa, yoqadimi? Unda sen boshqalarga yordam ber. Boshla.

Mana shu axloqning oltin qoidasi deb ataladi. Hurmatli Prezidentimiz sizlarni “Oltin avlod”, deb atadilar. Demak, sizning axloqingiz qanday axloq bo‘lishi kerak?

Bolalar: Oltiin axloooq.

O’qituvchi: Barakalla! Oltin qoidani yod oling! Unga amal qiling!

Bilim – o‘qish, eshitish, o‘rganish orqali olinadigan narsa.